



O‘ZBEK XALQ LATIFALARIDA MUBOLAG‘ANING QO‘LLANISHI

Nazarov Sherdor Rustam o‘g‘li,

O‘zbekiston Davlat Jahon

Tillari Universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada latifa tushunchasi, o‘zbek xalq latifalarining jamiyatda tutgan o‘rni va ro‘li yoritilgan bo‘lib, stilistik vositalardan biri mubolag‘aga alohida to‘xtalib uning tarifi, qo‘llanishi va turlariga to‘liq izoh berilgan.

Kalit so‘zlar: Latifa, mubolag‘a, tablig‘, g‘uluv, ifrot.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi sirasida salmoqli o‘rin egallovchi o‘zining zavqbxshliligi bilan nihoyatda keng ommaviylik kasb etuvchi janrlardan biri latifadir. Janr atamasi arab kalomidagi -nozlik, yoqimli kabi ma‘nolarni anglatuvchi so‘zdan olingan bo‘lib, bu atama Yaqin va O‘rta Sharq xalqlarining aksariyati uchun bir xilda istifora etiladi.

O‘zining shakliy xossalari, mazmuniy qamrovi hamda tasvir usullari bilan Latifa rus va g‘arb adabiyotidagi anekdot janriga o‘xshaydi. Latifalardagi kulgichanlik undagi harakat va ifoda bilan uyg‘undir. Darhaqiqat, hayotiy lavhani nozlik hatti-harakat va so‘z orqali ifodalash mazkur janrga xos hisoblanadi: unda voqelikning kichik bir lavhasi o‘ziga xos ohang, nozlik so‘z o‘yinlari vositasida ifodalanadi.

Har bir xalqning avlodlardan-avlodlarga o‘tib kelayotkan o‘ziga xos urf-odatlar, xazillari va latifalari mavjud. Shu o‘rinda o‘zbek xalq latifalariga to‘xtalib o‘tar ekanmiz ular xalqimizning samimiyatga boy yumorlari, soddaligi ochiq ko‘ngilliligi o‘ziga xosligi, jilovdorligi bilan har zamonda ajralib turadi. Shuni ta‘kidlash joizki xalq latifalari voqeaning favqulodda boshlanishi va favqulodda hal etilishi bilan diqqatga sazovor. O‘zbek xalq latifalarining qahramoni dastlab bir kishi, bir hakim, bir donishmand, naqqosh kabi shaxslar sifatida tasvirlangan. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab bu hayotiy qahramon Nasriddin afandi tipiga o‘z o‘rnini bo‘shatib beradi. Bu narsa, bir tarafdin, ozarbayjon latifalari ta‘sirida yuz bergan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, turk latifalarining o‘zbek tiliga tarjima qilinishi va xalq orasida tarqalishi bilan izohlanadi. Natijada, Nasriddin afandi tipi o‘zbek latifalarining yakkayu yagona tipiga aylanib qoladi, hattoki janr atamasi ham xalq o‘rtasida ko‘p hollarda “afandi” nomi bilan yuritilishigacha yetib boradi. Xalq qahramoni Nasiriddin afandi har qanday qiyin vaziyatdan o‘zining topqirligi, hozirjavobligi, don ova zukkoligi bilan oson qutulib ketadi. Chunki u har qanday hayotiy vaziyatga mos keladigan qilib shakllantirilgan.

Nasriddin afandining latifalariga nazar solar ekanmiz ularning barchasi yanada kulgiliroq yanada bo‘yoqdorroq bo‘lishi uchun bo‘rttiribroq aks ettirilgan. Va mana shu bo‘rttirish tilshunoslikda mubolag‘a deb ataladi. Mubolag‘aning o‘zbek tilining izohli lug‘atidagi ta‘rifiga yuzlanar ekanmiz, u tasvirlanayotgan yoki ta‘riflanayotgan kimsa, narsa, hodisa va shu kabilarni o‘quvchilarga yaqqol, ta‘sirli qilib yetkazish uchun ularning sifatlarini ortirib, bo‘rtirib ko‘rsatish degan ma‘noni anglatib; shu maqsadda ishlatilgan so‘z, ibora; giperbola deb yoritilgan. Mubolag‘a



tarixiga yuzlanar ekanmiz uning ilk kelib chiqishi Grek davriga borib taqaladi. Mubolag‘aning 3 turi mavjud bo‘lib ular quyidagilar:

TABLIG‘ - aqlan ishonish mumkin bo‘lgan, hayotda ham yuz berishi mumkin bo‘lgan mubolag‘adir.

IFROT - belgi yoki harakatni aqlan ishonish mumkin bo‘lsa ham, hayotda yuz berishi mumkin bo‘lmagan tarzda kuchaytirib tasvirlash.

G‘ULUV- aql ham bovar qilmaydigan, hayotda ham yuz berishi mumkin bo‘lmaydigan tarzda tasvirlash.

Endi esa birgalikda o‘zbek xalq latifalaridan aynan mubolag‘a qo‘llanilganlarini ko‘rib chiqamiz:

Tajanglik

Afandi arzimagan narsaga tajanglik qilaverar edi. Bir kuni ko‘chadan kirib kelar ekan,u:

-Hay,attang,-deb peshonasiga urdi.

-Nima bo‘ldi?-deb qiziqib so‘radi xotini.

-Eshonimning eshaklari dumsiz tug‘ibdi.

Xotini qah-qahlab kulib yubordi va:

-Dumsiz tug‘sa nima,osmon uzilib yerga tushadimi?-dedi.

-E,nodon,-dedi Afandi,-yuk ortib ketayotkanda loyga tiqilib qolsa,qayerdan tortib chiqaradi?!

Anglaganimizdek Ushbu latifada mubolag‘a yaqqol ko‘zga tashlanib turibti va u quyidagi gap bilan ifodalangan:

-Osmon uzilib yerga tushadimi?

Erka qiz

Afandining qizi juda dangasa edi. U sira uy-ro‘zg‘or ishiga qaramas ,onasiga hech yordamlashmas,kunibo‘yi o‘ynar yoki yotib uxlar edi.

Bir kuni Afandi xotinigam maslahat tariqasida bunday dedi:

-Men uy ichini supura boshlayman,sen kelib ,supurgini qo‘limdan olmoqchi bo‘lgin-da: “Uyat emasmi,biz uyda turib siz supursangiz”,degin. Men supurgini senga bermay : “Sening boshqa ishlaring ham boshingdan oshib yotibti,o‘shalarni qilsang ham g‘oyat charchaysan”deyman. Zora shunda qizimiz uyalganidan hovli bilan uyni supursa.

Ular xuddi shunday qildilar.Xotini supurgini olmoqchi bo‘lgan edi,Afandi bermadi. Er-xotin tortishib turganining ustiga qizi kirib,zarda bilan dedi:

-Nega janjallashasizlar? Har ikkingiz navbatma-navbat bir kundan supursangiz,ish tamom-vassalom.

Ushbu latifada keltirilgan –“Sening boshqa ishlaring ham boshingdan oshib yotipti ,”esa mubolag‘ali tasvir hisoblanadi.

Zahar

Afandi domlasining hujrasida o‘tirgan edi,biro bir kosa asal olib keldi. Domla kosani xujraning to‘ridagi tokchaga qo‘yar ekan,Afandiga tayinladi:

-Bu kosadagi zahar,kishi yesa til tortmay o‘ladi.



Domla tashqariga chiqib ketkan edi, Afandi darhol uning guldor mis qalamdonini urib pachoqladi, keyin tokchadan asal turgan kosani olib, payshanbalik nonlar bilan pok-pokiza tushirdi, kosani yalab, joyiga qo‘ydi. Domla kelib qarasa, kosa bo‘shab qolibdi. U Afandidan so‘radi:

-Buni kim yedi?

Afandi pachoqlangan qalamdonni ko‘rsatib javob berdi:

-Taqsir, qalamdoningizni bilmasdan bosib olib pachoqlab qo‘ydim. Qo‘rqqanimdan nima qilishimni bilmay, domla kelguncha o‘lib qo‘ya qolay, deb o‘sha kosadagi zaharni qatra qo‘ymay yedim. Biroq haliyam o‘lmayotibman.

Ushbu latifadagi “til tortmay o‘ladi” gapida mubolag‘a qollanilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak jamiyatda o‘zbek xalq latifalarining o‘rni beqiyos bo‘lib ularni yanada qiziqarli va yanada jilovdor bo‘lishida mubolag‘adan foydalanish katta yordam beradi va latifalarni yanada jilovdor qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 3-жилд. - Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. - Б. 459.
2. О‘zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005)
3. Sharif Rizo “Afandi latifalari”
4. Abdulla Qahhor “Afandi latifalari” (1959)
5. “O‘zbek xalq ijodi” turkumidan “Latifalar” (1965)
6. Y. Jurayev “ Afandining ahdi” (1966)
7. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. - Toshkent. O‘zbekiston. 2002
8. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. - Toshkent. O‘qituvchi, 1985
9. Homidiy H, Abdullayeva Sh, Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lug‘ati. - Toshkent. O‘zbekiston. 1970.